TARBIYA FANINI O‘QITISHGA METODIK TAYYORGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH

Xaydarova M.X.
Termiz davlat pedagogika instituti, Boshlang’ich ta’lim metodikasi kafedrasi katta o’qituvchisi, PhD

Tayanch so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, tarbiya, pedagogik jarayon, o‘qituvchi, mutafakkir, metod, faoliyat, ta’lim tizimi, tarbiya, mazmun, shakl, usul, vosita.

Ключевые слова: начальное образование, воспитание, педагогический процесс, учитель, мыслитель, метод, деятельность, система образования, воспитание, содержание, форма, метод, средство.

Key words: primary education, upbringing, pedagogical process, teacher, thinker, method, activity, educational system, upbringing, content, form, method, tool.

Kirish: Sifatli ta’lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash”, shu bilan birgalikda umumiy o‘rta ta’lim sifatini tubdan oshirish, tarbiyaviy ishlarga oid talab yuqori bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rgatish; ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo‘yicha tayyorlash hamda oliy ta’lim tizimida faoliyatining sifati va samaradorligini oshirish ustuvor vazifa sifatida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

Yoshlarimizning ma’naviyatli, bilimli bo‘lishida O‘qituvchi bilan birgalikda Davlat siyosatining o‘rni ham beqiyos. Prezidentimiz o‘z nutqida yoshlarni qo‘llab-quvvatlash dolzarb ekanligi to‘g‘risida alohida to‘xtalib o‘tdi. “Umuman olganda, har qanday jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi rolni ushbu jamiyatning kelajagi bog‘liq bo‘lgan yosh avlodning sog‘lom va barkamol rivojlanishi o‘ynaydi. Shuning uchun islohotlarimizni kengaytirish va samaradorligini yanada oshirish masalalarida biz zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan g‘ayratli, tashabbuskor, har tomonlama rivojlangan yoshlarimizni o‘zimizga tayanch deb bilamiz”, deb ta’kidladilar. Muhtaram Prezidentimiz, mamlakatda yangi Uyg‘onish davrining poydevorini shakllantirish uchun yangi Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek, Navoiy va Boburlarni tarbiyalash uchun muhit va sharoit yaratish zarurligini ta’kidladilar.

“Bizning eng ustuvor vazifamiz ulkan maqsadlarni belgilash va ularga erishish uchun vakolatli yoshlarni yaratish bo‘lishi kerak. Shundagina bolalarimiz xalqimizning azaliy orzularini amalga oshiradigan haqiqiy kuchga aylanadi”,

deb ta'kidladilar. Qashqadaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkentning Chilonzor viloyatidagi uchrashuvlarda yoshlar tomonidan bildirilgan dadil g'oya va tashabbuslardan juda mamnunligini aytdi.

"Ayniqsa, yaqinda bo'lib o'tgan Yoshlar forumida yigit-qizlarimizning ishtiyoq bilan yonayotgan ko'zlarini, bilimga bo'lgan ishtiyoqlarini ko'rib, men juda katta kuch oldim. Va ular yana Ibn Sino aytgan jasur va qattiyatli yoshlar ekanligiga yana bir bor amin bo'ldim" dedi davlatimiz rahbari. "Ishonchim komilki, biz qudratli ijodiy salohiyatga ega bo'lgan bunday bilimli yoshlar bilan birgalikda yangi O'zbekistonni barpo etamiz", deya ta'kidladilar.

Tahlil va natija: Barkamol inson o'zida ma'naviy va jismoniy yetuklikni mujassam etadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tarbiya fanini o'qitishga metodik tayyorlash uchun birinchi navbatda xalq og'zaki ijodi, xalq ertaklari, hikoyalar, afsonalar, ajdodlarimizning ma'naviy merosi hamda tarixiy kitoblar asosiy o'rin tutadi. Bundan tashqari sharq mutafakkirlarining me'rosi, she'r va g'azallari, badiiy ijod namunalari dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshbandiy, Al-Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad al-Xorazmiy, Abulqosim Firdavsiy, Amur Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari allomalarning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-ta'limiy qarashlariga tayanib ish ko'rilsa, talabalarning tarbiyaviy ishlari jarayonini rivojlantirish ishlari yanada mukammallik kasb etadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiya fanini o'qitishga metodik tayyorlash ta'lim jarayonining asosi bo'lgan, doimiy diqqat va e'tiborni talab qiladigan, o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan pedagogik muammodir.

Ta'lim-tarbiya barcha davrlarda ham insoniyat oldida hal etilishi zarur bo'lgan eng muhim dolzarb vazifa bo'lib turgan. Shuningdek, u odamlarning amal qilib kelayotgan tajribalari, yutuqlari, urf-odatlari va an'analari asosida tashkil qilingan. Ya'ni, ta'lim-tarbiyaga doir shakllangan urf-odatlarimiz, boqiy an'analarimiz ko'p. Bugungi kunda ham ulardan yoshlarni tarbiyalashda keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Har bir davlat o'z aholisini, ayniqsa bilim va yangilikka chanqoq yoshlarini ilmiy bilimlar, ma'rifiy-ma'naviy ozuq bo'ladigan axborotlar bilan ta'minlanishidan manfaatdordir. O'zbekistonda ham o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual ehtiyojlarini qondirishga, madaniy, ma'naviy axloqiy qadriyatlarni saqlab qolishga yo'naltirilgan, prinsipial —axborot siyosati shakllantirildi va hayotga joriy etilmoqda. Respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar xuddi mana shu maqsadga yo'naltirilgan. Zero, ushbu masala g'oyaviy nuqtai nazardan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun prinsiplariga to'la muvofiq keladi.

Ta'lim-tarbiyaga oid milliy merosimizni o'rganishning dolzarbligi nazariy jihatdan asoslidir. Xususan, uzluksiz ta'limning milliy modeli tamoyillari

mohiyatan ta’limning milliy-ma’rifiy, milliy tarix, xalq an’analari, milliy merosimiz bilan uyg‘unlikda olib borilishini anglatadi. Umuman ta’lim-tarbiyaning milliy modeliga ko‘ra, ta’lim tizimini yangilash – tabiiy ravishda milliy merosimizni o‘rganish va uni pedagogik tafakkur iste’moliga olib kirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda.

Chin ma’nodagi shaxs o‘zini-o‘zi qayta tarbiyalash salohiyatiga ega bo‘ladi. O‘zi va millat uchun befoyda, zararli odatlaridan voz kechadi. Millat manfaatlarini o‘z manfaati, o‘z manfaatini esa millat manfaatiga erishish sharti deb tushunadi. O‘z vazifasini millatning kuniga yarash, og‘irini yengil qilishda ko‘radi. Shu sababli u o‘z shaxsiy qobig‘idan chiqib ko‘tariladi va millat manfaati uchun, millat farovonligi orqali o‘zini kamolotga erishtirish uchun boshqalardan ko‘proq, samaraliroq mehnat qiladi. Umummilliy g‘oya, maqsadga ishonadi, uni himoya qiladi. Talabada bu fazilatlar birdaniga paydo bo‘lib qolmaydi. U, avvalo, oilada ota-ona, oiladan tashqarida qarindosh-urug‘, qo‘shni-mahalladoshlar orasidagi tarbiyaviy muhitni rag‘batlantirib borish, so‘ngra oliy o‘quv yurtida - mafkuraviy bilimlarni egallash orqali tarbiyalanadi. Shu sababli bu jarayonga ijtimoiy.

Ta’lim jarayoni dunyo bo‘yicha turli mamlakatlarning yaqinlashuvi, tom ma’noda global, insoniyat sivilizatsiyasi taqdiri uchun hal etuvchi ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘plab omillar bilan belgilanadi. Bu omillar orasida yuzaga kelgan umumiy va milliy o‘ziga xosliklar alohida ahamiyatga ega.

Ta’limning noyob imkoniyatlari hozir nafaqat inson aqlini yangi tezkor imkoniyatlar bilan qurollantirish, balki uning ongini qayta qurish bilan bog‘liq. Insoniyat sivilizatsiyasi rivojining yangi bosqichi insonning shakllanish jarayoni, shaxsiy fazilatlar, hayotiy maqsadlar va qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini o‘zgartiradi. O‘sib kelayotgan yosh avlod uchun ta’lim tizimi sifat jihatdan yangicha talablar qo‘yadi.

XXI asr - innovatsiyalar asridir. Mamlakatimiz kelajagi jamiyat hayotining boshqa sohalari bilan birga ta’lim tarbiya tizimini yangi zamon talablari darajasiga ko‘tarishga yo‘naltirilgan ishlarning samaradorligi bilan belgilanadi.

Ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish o‘z navbatida bu sohada yangi, zamonaviy, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni izchil joriy etishga ko‘p jihatdan bog‘liq. Ta’lim samaradorligi talaba bu jarayonda qay darajada faol qatnashayotganligi bilan belgilanishini hisobga olgan xolda yangi o‘qitish uslublari, shakllari ta’lim oluvchilarga mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish uchun imkoniyat yaratadi.

Ajdodlarimizning yaratuvchanligi shaxs manfaatlariga qaratilgan bo‘lsa, ayni vaqtda mustaqil davlatimizda amalga oshirilayotgan barcha yangiliklar ham inson kelajagi uchun xizmat qilishi ko‘zda tutilgan. Zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimi va milliy meros asosidagi g‘oyaviy uyg‘unlik – ta’lim-tarbiya jarayonida milliy merosning ma’naviy-ma’rifiy zaminlariga tayanish zarurligini ham anglatadi.

Shu jihatdan olib qaraganda o‘tmish allomalari, mutafakkirlarining ma’naviy meroslarini yosh avlodning tarbiyasidagi ahamiyati bugungi kunda ham g‘oyat beqiyosdir.

Shaxs – Ta’lim tizimining bosh sub’ekti va ob’ekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi hamda ularni amalga oshiruvchisidir. Shuning uchun ham bizning ajdodlarimiz ta’lim-tarbiya masalasida inson shaxsi uning xususiyatlarini hisobga olib ish ko‘rganlar. Ma’lumki, tarbiya inson shaxsi, ma’naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimidir. Ta’lim esa axloqli, odobli shaxsga hunar o‘rgatish, bilim berishdir. Inson shaxsini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan tarbiya va ta’lim bir-biri bilan uzviy bog‘langan jarayondir. Abdulla Avloniy ta’lim va tarbiyaning mushtarakligi haqida shunday yozadi: “Dars (ya’ni ta’lim) ila tarbiya orasida biroz farq bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydigan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidir. Chunki dars oluvchi - tarbiya oluvchi, amal qiluvchi demakdir”.

Inson shaxsi shakllanishida tarbiya ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi. Umuman aytganda, tarbiya ta’lim berish jarayonining barcha ma’rifiy majmuasini ham vazifasini ham o‘z ichiga oladi. Har qanday ta’lim, tarbiya bilan uyg‘unlashgandagina yetuk ma’naviyatga zamin bo‘ladi.

Tarbiya, xususan milliy tarbiya xaqida so‘z borganda, bu tushunchaning mohiyati ustida alohida to‘xtalib o‘tish lozim. Tarbiya so‘zi asli arabcha bo‘lib, «parvarish qilish, ta’lim berish, o‘rgatish» degan ma’noni anglatadi. Tarbiyachi esa yuqoridagi maqsadlarni amalga oshiruvchi shaxsdir. Mukammal tarbiya berish ma’naviy kamolotning barcha jabhalarini rivojlantirish uchun sub’ektiv omil bo‘lib, unga asos ham yaratadi Shuning uchun hamma davrlarda ham tarbiyachilar yoshlarni axloqi va odobi, iymoni va vijdoni, bilimi hamda malakasini davr talablari va ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirib shakllantirishga harakat qilganlar.

Olimlarning ta’kidlashicha, informatsion yoki psixologik xurujlar ikki muhim ob’ektga zarba berishni maqsad qilib qo‘yadi. Bu, **birinchidan**, kompyuterlar va ma’lumotlar tizimidir, chunki bugun hayotni axborot texnologiyalarisiz, Internetsiz tasavvur qilish qiyin. **Ikkinchidan** - har birimizning individual ongimiz hamda barchamizga xos bo‘lgan va biz amal qiladigan ijtimoiy xatti-harakat normalariga ta’sir alohida e’tiborga olinadi.

O‘qitish sharoitida zamonaviy metodlarni qo‘llash natijasida ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, zaruriy xulosalar chiqarish, o‘z fikrini erkin bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, faol muloqot, munozara, bahs olib borish ko‘nikmalari rivojlanib boradi. Bu metodlar orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga hamda interfaol metodlarni qo‘llash orqali mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ilg‘or

tashabbuskorlik koʻrsatishlariga keng va innovatsion imkoniyatlar yaratilishi guruh jamoasi bir boʻlib ishlashi uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish umumiy oʻquv jarayonining samaradorligini oshirishda oʻziga xos ahamiyatga ega.

Boʻlajak oʻqituvchilarni metodik tayyorgarligini takomillashtirish jarayonida foydalaniladigan metodlarni quyidagicha tavsiya qilish mumkin.

Tadqiqotchilik metodi Ta'lim sharoitida boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchisi egallangan bilimlaridan birgalikda yoki individual faoliyatda foydalanish, mustaqil tanqidiy fikrlash, muammoni ilmiy tahlil qilish, ijodiy izlanishlarni rivojlantirishda foydalanadi. Hamkorlikdagi ijodiy faoliyat orqali muammoni hal etishda ilmiy yondashishga undaydi. Faoliyat jarayonidagi hamkorlik esa mavjud muammolarni tezroq anglab yetish va yechim qilish uchun keng imkoniyat yaratishi bilan ustuvorlik kasb etadi.

Loyihalash metodi boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchisining turli gʻoyalariga doir rejalashtirish ishlarini bajarish boʻyicha mustaqil ishlash qobiliyatini koʻrsatishiga, oʻzining oʻquv-bilish faoliyatini tashkil etish va nazorat qilishga yoʻl ochib beradigan oʻqitish jarayonini nazarda tutadi. Bunda loyihada qatnashayotgan boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining faoliyati umumiy koʻrinishda boʻlib, maqsad va oʻzaro kelishilgan holda tanlangan metodlar va usullar hamkorlikda erishiladigan natijalarga yoʻnaltirilgan boʻladi. Loyihalash metodi asosida boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilari bilimlarni oʻzlashtirish, ijodiy tafakkurini ragʻbatlantirish, mustaqil ravishda oʻz bilimini rivojlantirish bilan oʼz pedagogik faoliyatida tanqidiy fikrlashini rivojlantirish imkoniyatlari yaratiladi.

Bashorat qilish metodi ta'lim sharoitida boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchisining metodik ba'zasini shakllantirishda yuqoridagi barcha metodlardan foydalanar ekan, ta'lim jarayonidagi oʻzgarish, yutuq va kamchiliklarni tahlil qilishi lozim. Bu uchun tavsiya etilgan barcha topshiriqlarni bajarib, natijasining yakuni haqida aniq tasavvur hosil qilishi zarur. Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchisi fan oʻqituvchisi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarishda tanlaydigan har bir yoʻl va yechim mazmunini oldindan koʻra olishi baholanadi. Ma'lum rejalar va bosqichlar asosida olib borilgan ta'lim jarayonida ushbu metodlar toʻgʻri va samarali qoʻllanilishi natijasida ijobiy koʻrsatkichlar kuzatiladi.

Muammoli oʻqitish metodi oʻquv jarayonida boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchisining diqqatini dolzarb muammolar va ularning yechimini topishga qaratish, ularning bilish faolligini oshirish va muammoni yechish boʻyicha bilim, koʻnikma hamda malakalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Vaziyatlar tahlili metodi muayyan masalalarni yoki vaziyatlarni yechishni oʻrgatish yoʻli bilan ta'lim berishga asoslanadi. Ushbu metodni qoʻllashda

ma’lum qoidalar bo‘yicha muayyan, odatda, real hayotda ro‘y bergan vaziyatlar ishlab chiqiladi; bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi olishi kerak bo‘lgan bilim va amaliy ko‘nikmalar kompleksi aks ettiriladi. Bunda, savollarni chiqaruvchi, javoblarni hisobga oluvchi, munozarani qo‘llab-quvvatlovchi, ya’ni hamijodkorlik jarayoni dispetcheri rolida bo‘ladi.

Produktiv metod Professor-o‘qituvchi tomonidan berilgan bilimlarni biroz ijodiy yondashib qabul qilish va yechim izlashga bog‘liq. Produktiv metod orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi berilgan topshiriqlar mazmunini ijodiy va qayta xotirlab tahlil qiladi, natijalarni tizimlashtiradi. Va, jarayonni rivojlantirish uchun individual protsessda davom etish imkonini yaratadi.

Reproduktiv metod tayyor bilimning yetkazilishi va qabul qilinishi bilan bog‘liq. Bu metodlarga hikoya, tushuntirish, ma’ruza, namoyishli tajribalar, darslik bilan ishlash, kompyuter texnologiyalari va boshqalar kiradi.

Amaliyot bilan bog‘lash metodlari ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi boshlang‘ich sinfga tegishli fanlarni o‘rganishda uning amaliy jihatlarini o‘rganish muhim hisoblanadi. Mazkur metod bilan ishlashda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini nazariy olgan bilimlarini amaliyot orqali mustahkamlash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Yurtboshimiz, tarbiya, muallim hamda murabbiyning ta’lim tizimidagi o‘rnini atroflicha tahlil etib shunday degan edi: «Tarbiyachilarning o‘ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma’lumotini oshirish kabi paysalga solib bo‘lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Mening fikrimcha, «Ta’lim-tarbiya tizimini o‘zgartirishdagi asosiy muammo ham shu yerda, o‘qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo murabbiyning o‘zi ham shunday bilimga ega bo‘lishi kerak». Shu bilan birga, o‘qituvchi va murabbiylarning hayotiy talablarini qondirish, ularni rag‘batlantirish, ularni o‘z ishi, kasbidan mamnun bo‘lishini ta’minlashimiz lozim. Albatta bu masalani birdaniga yechish qiyin, lekin uni yechmasdan turib kelajak avlodning tarbiyasi to‘g‘risida gapirishning o‘zi mutloqo nomaqbuldir». Zero, biz yangi asrda va yangi bir sivilizatsiya davrida yashayapmiz. Bu sivilizatsiyada mehnat qilib, o‘zining ustida tinmay ishlaydigan, uzluksiz ta’lim oladigan, doimiy ravishda o‘z bilim ehtiyojlarini qondirib, olgan bilimlarini oilasi, xalqi va davlati rivojlanishiga sarf qila oladigan shaxsgina munosib o‘rinni egallashi mumkin. Shuning uchun ham Milliy modelimizda uzluksiz ta’limga katta ahamiyat berilgan. Chunki, jamiyatimiz o‘z oldiga qo‘ygan oliy maqsad – kelajagi buyuk O‘zbekistonni, ozod, obod Vatanni yaratish va umuman, islohotlarning taqdiri oxir-oqibatda bugun shakllanayotgan avlodning dunyoqarashiga, ijtimoiy mo‘ljalliga zamonaviy ilm-fan va kasblarni egallashiga, amaliy tashkilotchiligiga bevosita bog‘liq.

Xulosa. Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi o‘ta murakkab, qaltis va mas’uliyatli davri ma’naviy-ma’rifiy ishlar, mafkuraviy ta’lim-tarbiya markazida yosh avlod turishi zarurligini, farzandlarimizning aql-zakovatli, teran fikrli, mustahkam e’tiqodli qilib tarbiyalanishlariga jiddiy e’tibor berishni, ularning soddalik qilib soxta oqimlar yo‘liga kirib pana-pasqadamlarda pisib yurgan har xil johil odamlarning gapi va yo‘liga kirib ketishlariga aslo yo‘l qo‘yib, beparvo qarab bo‘lmaydi. O‘z navbatida, xalqimiz tarixidagi buyuk allomalarni, xususan, ma’rifatli dunyo Buxoriylar, Farg‘oniylar, Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklarni qanchalik izzat ikrom qilgan bo‘lsa, yigirma birinchi asrda biz xalqimiz, millatimizga nisbatan ana shunday ehtiromni qaytadan qo‘lga kiritishimiz kerak.

Buning uchun esa ta’lim-tarbiya tizimini muntazam takomillashtirib, ta’lim hayotiyligini, uning milliy g‘oya tamoyillari bilan uzviy aloqadorlikda rivojlantirishni ta’minlay olishimiz zarur. Ana shundagina biz kutilgan natijalarga erisha olamiz.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.

2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016. -56 b.

3. Haydarova M.X. Boshlang‘ich sinflarda tarbiya fanini o‘qitishning pedagogik asoslari// O‘zbekiston milliy universiteti xabarlari. –Toshkent, 2022. B-221-224. ISSN 2181-7324.

4. Haydarova M.X. Model and psychological and pedagogical conditions conducive to the formation of managerial competenge of future primary school teachers// European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences (EJRRS). - Vol. 7 No. 11, 2019. ISSN 2056-5852. P-90.

5. Haydarova M.X. Theoretical bases of preparation of future primary school teachers for teaching the subject of education// ICAESAS-London UK 2022. https://conferencezone.org/index.php/cz.

6. Najmidinova K.U. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o‘rni. – T.: «Adolat». 2016. 224 bet.

7. Nazarova Z.A., Haydarova M.X. Development and growth of education// Philosophical Readings XIII.4 (2021,) pp. 282-290.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola tarbiya fanini o‘qitishga metodik tayyorgarlikni takomillashtirish haqida yozilgan. Bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiya fanini o‘qitishga metodik tayyorlashning asosiy maqsadi – yosh avlodni har tomonlama yetuk, jamiyatimiz taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan barkamol insonlar etib shakllantirishdir.

РЕЗЮМЕ

В данной статье написано о совершенствовании методической подготовки к преподаванию педагогической науки. Сегодня основная цель методической подготовки будущих учителей к преподаванию педагогической науки – сделать молодое поколение зрелыми во всех отношениях, всесторонне развитыми людьми, необходимыми для развития нашего общества.

SUMMARY

This article is written about the improvement of methodological preparation for teaching the science of education. Today, the main goal of methodical training of future teachers to teach the science of education is to make the young generation mature in all respects, well-rounded people necessary for the development of our society.